

## **«Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvalik loyihasini o'tkazish qoidalari**

### **1. Umumiy qoidalari**

Mazkur qoidalari «Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvalik loyihasinini o'tkazish qoidalari va muddatlarini, shu jumladan Loyihada (keyingi o'rinnarda - Loyiha) ishtirok etish va natijalarini aniqlash tartibini belgilaydi.

Loyihaning maqsadi yadro fizikasi asoslarini ommalashtirish, keng xalqaro jamoatchiligiga atom texnologiyasi borasidagi jahondagi so'nggi yutuqlarni va atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishning afzalliklarini yetkazishdan iborat.

- Loyihaning maqsadli auditoriyasi (keyingi o'rinnarda-Ishtirokchilar) – keng xalqaro auditoriya, ayniqsa:
- O'rta va yuqori sinflar o'quvchilari hamda 11-16 yoshdagi barcha xohlovchilar (keyingi o'rinnarda – Bolalar);
- 17 yoshdan yuqori bo'lgan keng jamoatchilik vakillari (keyingi o'rinnarda – Kattalar).

Loyihada qatnashar ekanlar, Ishtirokchilar mazkur qoidalarga (keyinggi o'rinnarda-Qoidalari) to'liq amal qilishga rozilik beradilar.

Loyiha mazkur Qoidalari bilan tartibga solinadi, u notijorat ma'rifatparvarlik loyihasi hisoblanadi, u rag'batlantiruvchi reklama tadbiri yoki lotereya emas.

### **Umumiy ma'lumotlar**

1.1.Nomi: «Global Atomic Quiz» xalqaro ma'rifatparvalik loyihasi.

1.2.Loyihani amalga oshirish hududi: dunyonigng barcha malakatlari, hech qanday cheklowlarsiz.

1.3.Loyiha tashkilotchisi: Atom energiyasi bo'yicha axborot markazlarini rivojlantirish «Energiya Budushego» avtonom notijorat tashkilotining («Energiya Budushego» ANT, manzil: 117105, Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahri, Varshava shossesi, 3-uy) (keyingi o'rinnarda– Tashkilotchi).

1.4. Loyihani amalga oshirish muddatlari:

1.4.1. Loyihani amalga oshirishning umumiy muddati: 2021 yilning 10 noyabridan g'oliblarga Mukofotlarni topshirish sanasiga qadar, ammo 2022 yilning 31 dekabridan kechikmagan holda. Loyihani amalga oshshirishning umumiy muddatiga Loyiha Ishtirokchilari Loyihada amalga oshirishlari talab etiladigan harakatlarni bajarish; Tashkilotchi tomonidan Loyiha g'oliblarni aniqlash uchun sarflanadigan vaqt; hamda Tashkilotchi tomonidan Loyiha yakunlari bo'yicha G'oliblarga Mukofotlarni topshirishga zarur vaqt kiradi.

1.4.2.Loyihani o‘tkazish davrining asosiy qismi, ya’ni yadro fizikasi asoslari va atom sohasidagi jahon yutuqlari to‘g‘risidagi bilimlarga oid ilmiy-ommabop viktorina (keyingi o‘rinlarda-Viktorina) topshiriqlarini bajarish muddati – 2021 yilning 10 noyabri 00 soat 00 daqiqa 00 soniyadan 2021 yilning 10 noyabri 23 soat 59 daqiqa 29 soniyagacha (Ishtirokchi istiqomat qilayotgan joy vaqt bilan).

1.4.3.Ilmiy-ommabop viktorinaning imkon qadar ko‘p savollariga to‘g‘ri javob bergen Ishtirokchilarning dastlabki ro‘yhatini aniqlash davri Viktorina tugaganidan so‘ng 7 (etti) kalendar ish kunida amalga oshiriladi.

1.4.4.Natijalarini chiqarish va Loyiha G‘oliblarini e’lon qilish – 2021 yilning 26 noyabriga qadar.

1.4.5. G‘oliblarni Loyihada ishtirok etish natijalari bo‘yicha Mukofotlash Qoidalarga muvofiq 2022 yilning 1 apreldidan 2022 yilning 31 dekabriga qadar amalga oshiriladi.

1.4.6.Mukofotlarni berish aniq vaqt keyinroq bergilanadi va bu haqda Loyiha Ishtirokchilari Tashkilotchi tomonidan 30 kundan kechikmagan holda alohida xabardor qilinadi.

1.4.7.Mazkur Qoidalarning 1.4.3.-1.4.5. bandlarida ko‘zda tutilgan muddatlar Loyiha Tashkilotchisi istagi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

1.4.8.Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra G‘oliblarga Mukofotlarni topshirishning imkonи bo‘lmagan taqdirda (bartaraf qilib bo‘lmaydigan omillar natijasi, tabiiy ofatlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari/federal hukumat qarorlari bilan karantin choralar joriy qilinishi, mukofotlash bo‘lib o‘tadigan hududga yetib borish imkoniyatining yo‘qligi) Loyiha Ishtirokchilari bu haqda qo‘srimcha ravishda ogohlantiriladilar.

1.4.9.Tashkilotchi o‘z istagiga ko‘ra tadbirlarni bekor qilish yoki muddatlarini o‘zgartirishga haqli.

1.4.10.Loyiha Ishtirokchilarini xabardor qilish usullari:

Loyiha Ishtirokchilari Qoidalar, Loyihani amalga oshirish muddatlari va natijalari haqida Internet tarmog‘i: [quiz.atomforyou.com](http://quiz.atomforyou.com) sayti orqali xabardor qilinadilar, shu jumladan uning boshqa tillardagi versiyalari yordamida (keyingi o‘rinlarda – Sayt).

1.4.11.Ishtirokchilar va/yoki ularning ota-onalari/qonuniy vakillari bilan dastlabki aloqa, shu jumladan ma'lumotlar va hujjatlarni verifikasiya qilish faqat Loyihaning elektron manzili: [info@atomforyou.com](mailto:info@atomforyou.com) orqali bajariladi.

## **1. Ishtirokchilar va Loyihada qatnashish shartlari**

1.1. Mazkur Loyiha Qoidalarid maqsadli auditoriyani aniqlash taomiliga muvofiq Loyihaning tanlov qismi Ishtirokchilari sifatida Loyihani o‘tkazish davrida 11 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Qolgan barcha Ishtirokchilar Loyihada qatnashishlari mumkin, ammo ular tanlov doirasida ko‘rib chiqilmaydilar.

1.2. Amaldagi qonunchilik talablariga mumvofiq mazkur talablarda ko‘zda tutilgan harakatlarni mustaqil ravishda bajara olmaydigan voyaga yetmagan Ishtirokchilar ushbu harakatlarni ota-onalari (yoki qonuniy vakillari) orqali yoki ularning yordami bilan bajaradilar.

1.2.1. Voyaga yetmagan Ishtirokchilar o‘z ota-onalarini (qonuniy vakillarini) mazkur Qoidalar bilan tanishtirishga va ota-onalarining (qonuniy vakillarinig) roziliginini, shu jumladan Loyihada ishtirok etish bo‘yicha ruhsat olishga o‘zlari mas’ullar.

1.3. Loyihaning tanlov qismida qatnashishga quyidagilar qo‘yilmaydilar: Ташкилотчи ходимлари, Ташкилотчи манфаатларини ифода этувчи шахслар ва уларнинг оила аъзолар;

- Tashkilotchi bilan Loyihani tashkil qilish va o‘tkazishga bog‘liq bo‘lgan va shartnomaviy munosabatlarga ega uchinchi shaxslarning xodimlari va vakillari hamda ularning oila a’zolari.

Mazkur Qoidalarga muvofiq Loyiha ishtirokchilari Loyihaga doir ma’lumotlardan xabardor bo‘lishga haqlilar.

– Loyiha Ishtirokchilari quyidagilarga mas’ullar:

– Loyihani o‘tkazish davrida uning Qoidalariга amal qilish;

Loyiha Qoidalriga binoan Tashkilotchiga o‘zi haqida ishonchli ma’lumotlarni yetkazish;

Mazkur Qoidalalar bilan ko‘zda tutilgan boshqa vaziflalar.

## **2. Loyiha asosiy qismiga umumiyligi ta’rif. Loyihala ishtirok etish tartibi. Loyiha G‘oliblarini aniqlash.**

2.1.1. Loyiha natijalariga ko‘ra Tashkilotchidan Loyiha Qoidalariга muvofiq Mukofot olish imkoniyatiga ega bo‘lgan Ishtirokchilar aniqlanadilar.

2.1.2. 2.1.1. Mazkur Qoidalarning 4 bandiga muvofiq g‘oliblar uchun Tashkilotchi mukofot tarzida sovrinli axborot-ma’rifatparvarlik tadbirlarida qatnashishlarini ta’minlaydi. Tadbirda ishtirok etish orqali Ishtirokchilar foyda olishlari ko‘zda tutilmagan, u ma’rifatparvarlik tadbiri bo‘lib, Ishtirokchilarda Rossiya atom sanoati to‘g‘risida bilim shakllantirish, Rossiya yadro texnologiyalari yutuqlariga qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi.

2.1.3. Talablarning 2.1 va 2.2 bandiga to‘g‘ri keluvchi, Loyiha ishtirokchisi bo‘lish istagidagi talabgor Saytda ro‘yxatdan o‘tishi zarur.

2.1.4. Saytda ro‘yxatdan o‘tish uchun talabgor tegishli shakldagi so‘rovnomanini to‘ldirish orqali o‘zi haqidagi quyidagi ma’lumotlarni berishi zarur:

2.1.5. Familiyasi, Ismi;

2.1.6. Tug‘ilgan sanasi;

2.1.7. Aloqaga chiqish uchun ma’lumotlar (ish holatidagi mobil telefon raqami va elektron pochta manzili);

- 2.1.8. Atom sohasining 18-34 yoshdagi yosh xodimlari bo‘lgan ishtirokchilar qo‘sishma ravishda egallab turgan lavozimi va ish joyini ko‘rsatishlari kerak;
- 2.1.9. Loyihada ishtirok etish va shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligi to‘g‘risida belgi;
- 2.1.10. Voyaga yetmaganlar uchun Loyihada ishtirok etish va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlanishiga ota-onasining/qonuniy vakilining roziligi to‘g‘risida belgi.
- 2.1.11. Ro‘yxatdan o‘tishda noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlarni taqdim etgan talabgorlar Loyiha Ishtirokchisi bo‘lmaydilar, shuningdek Loyiha Tashkilotchisiga qoida buzilganligi ma'lum bo‘lgach, ushbu ishtirokchi qaysi bosqichda bo‘lishidan qat‘iy nazar Loyihada qatnashishdan chetlashtiriladi. Ro‘yxatdan o‘tishdagi ma'lumotlarning haqiqiy ekanligini bilish uchun tekshirishning har qanday bosqichida Tashkilotchi talabgordan (elektron pochta orqali) shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini so‘rashi mumkin. So‘rov yo‘llangan sanadan e’tiboran 2 (ikki) kun mobaynida unga javoban hujjatlar taqdim etilmasa, ushbu mazkur talabgorni Loyihada ishtirok etishdan chetlatishga asos bo‘ladi.
- 2.1.12. Tashkilotchi ro‘yxatdan o‘tkazish shakllarini kerakli tarzda to‘ldirmagan (to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri ma'lumot) talabgorlarni Loyihada ishtirok etishdan chetlatishi mumkin. Sayta ro‘yxatdan o‘tkazishda ko‘rsatib o‘tilgan telefon raqami va elektron pochta manzilini Ishtirokchi Loyiha tugagunga qadar almashtira olmaydi.  
Bir talabgor bir marta Ishtirokchi bo‘la oladi.
- 2.2. Mukofotli ma'rifatparvarlik tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘luvchi Ishtirokchilarni aniqlash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:
- 2.2.1. Birinchi majburiy mezon: yadro fizikasi asoslari va atom sohasida jahon yutuqlarini bilish bo‘yicha Viktorina topshiriqlarini bajarish.
- 2.2.1.1. Viktorina Internet tarmog‘ida, [quiz.atomforyou.com](http://quiz.atomforyou.com) saytida barcha til versiyalarida o‘tkaziladi.
- 2.2.1.2. Ilmiy-ommabop Viktorina atom mavzusiga oid turli murakablikdagi 15 savoldan iborat, Ishtirokchi tizim tomonidan taklif qilinganlar orasidan to‘g‘ri javobni aniqlashi zarur.
- Ishtirokchining yoshidan kelib chiqib savollar ikki toifaga bo‘lingan: «Bolalar» toifasi – 11 - 16 yoshlilar uchun.
- «Kattalar» toifasi – 17 yosh va undan yuqorilar uchun.
- 2.2.1.3. Ishtirokchi Viktorina savollariga bir marta javob berishi mumkin.
- 2.2.1.4. Javob berish vaqt chegaralanmagan.
- 2.2.1.5. Keyingi savolga o‘tish uchun Ishtirokchi avvalgisiga javob berishi shart.

- 2.2.1.6. Viktorinani o‘tish jarayonida berilgan to‘g‘ri javoblar miqdori asosida avtomatik ravishda reyting chiqariladi, Ishtirokchi qancha ko‘p to‘g‘ri javob topsa, Ishtirokchilar orasida uning o‘rni shuncha yuqori bo‘ladi.
- 2.2.1.7. Viktorinada ishtirok etish natijalari bo‘yicha ikki va undan ko‘p ishtirokchida to‘g‘ri javoblar soni bir xil bo‘lgan taqdirda, ular avtomatik reytingda bitta joy egallaydilar.
- 2.2.2. Ikinchi majburiy mezon: Loyiha g‘oliblarini tanlash.
- 2.2.2.1. Mazkur Qoidalarning 1.4.2 bandida belgilangan muddat yakunlangandan 2 (ikki) kundan kechikmagan tarzda Tashkilotchi eng ko‘p savolga to‘g‘ri javob topgan Ishtirokchilarning dastlabki o‘yxatini tuzadi.
- 2.2.2.2. Tashkilotchi dastlabki ro‘yxatga kirgan Ishtirokchilar bilan elektron pochta orqali bog‘lanib, Ishtirokchilarga qo‘yilgan talabga muvofiqlikni, ular tomonidan ro‘yxatga o‘tish vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlarni haqiqiyligini aniqlaydi. Bunda dastlabki ro‘yxatga kirgan Ishtirokchilardan elektron pochta orqali Ishtirokchining pasporti yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, ota-onasi/qonuniy vakilining Loyihada ishtirok etishga, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslashga, tadbirlarda qatnashishga bergen roziligidan skaner qilingan nusxa yo‘llash so‘raladi.
- 2.2.2.3. Ishtirokchi va/yoki uning ota-onasi/qonuniy vakili bilan Tashkilotchi aloqaga chiqqan sanadan 2 (ikki) kun mobaynida ko‘rsatilgan hujjatlar olinmasa, yoki Tashkilotchida Ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tish vaqtida taqdim etgan ma'lumotlar haqaiqiy emasligi to‘g‘risida Tashkilotchida asosli shubha tug‘ilsa (shu jumladan ammo bu bilan cheklanmagan holda telefon raqami va elektron pochta manzili noto‘g‘ri ko‘rsatilgani, ishtirokchi yoshini sohtalashtirgani, o‘zga yoki mavjud bo‘lmagan shaxs nomidan ro‘yxatdan o‘tgani), bunday ishtirokchi dastlabkii ro‘yxatdan chiqarib tashlanadi va Mukofot olish huquqididan maxrum etiladi.
- 2.2.2.4. Dastlabki ro‘yxatga kirish Mukofotga ega chiqish yoki Loyiha g‘olib bo‘lishni anglatmaydi.
- 2.2.2.5. Mukofotlarning har bir toifasida g‘oliblar dastlabki ro‘yxatga kiritilgan ishtirokchilar orasidan boshqa komp'yuter ilovasi yordamida tasodifiy tanlov asosida 2021 yilning 26 noyabriga qadar muddatda aniqlanadi.
- 2.2.2.6. G‘oliblarni aniqlash yakunlari bo‘yicha Tashkilotchi Bayonnomalarini tuzadi. Bayonnomalarini Saytda barcha G‘oliblarning familiyasi, ismi va otasining ismi keltirilgan tarzda e’lon qilinadi. G‘oliblarga shuningdek, elektron pochta orqali bildirishnomalarini yo‘llanadi. Agar G‘olib bildirishnomalarini olinganidan so‘ng 14 (o‘n to‘rt) kun davomida Tashkilotchiga javob bermasa, g‘olibning Mukofoti bekor qilinadi.

Bunda Tashkilotchi boshqa g‘olibni yuqorida qayd etilgan tartibda aniqlash huquqiga ega.

### **3. Loyiha Ishtirokchilariga Mukofotlar**

- 3.1. Loyiha amalga oshirilishi yakuni bilan unda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan barcha ishtirokchilarga Loyiha Tashkilotchisining maxsus elektron diplomlari taqdim etiladi.
- 3.2. Loyiha g‘oliblari uchun bosh Mukofot:
  - 3.2.1. “Bolalar” toifasida (11-16 yoshdagি Ishtirokchilar uchun): Rossiyadagi “Rosatom Maktabi bilan aqlii ta’tillar” xalqaro lagerining bir davrasida bepul ishtirok etish imkoniyati beriladi.
  - 3.2.1.1. Loyihaning mazkur toifasida 3 (uch) nafar ishtirokchi g‘olib bo‘lishi mumkin.
  - 3.2.1.2. G‘oliblarga hamda ularning bir nafar hamrohiga yotoq, ovqatlanish, tibbiy sug‘urta, yashash mamlakatidan tadbir o‘tkaziladigan mamlakatga va undan so‘ng ortga qaytish uchun bepul aviachipta hamda lager manziliga va undan qaytish uchun transfer taqdim etiladi.
- 4.4. 3.2.2. “Kattalar” toifasi (17 yoshlilar va undan kattalar uchun): g‘oliblarga “Rosatom” Davlat korporatsiyasining bir va/yoki undan ko‘p atom obyektiga uyushtiriladigan ta’lim sayohatida bepul ishtirok etish imkoniyati beriladi.
- 4.5. 3.2.2.1. Loyihaning mazkur toifasida ko‘pi bilan 10 (o‘n) nafar g‘olib bo‘lishi mumkin. Ta’lim sayoxati uyushtirish vaqtiga Ishtirokchilar 18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari zarur.
- 4.6. 3.2.2.2. Ishtirokchilar yotoq, ovqatlanish, tibbiy sug‘urta, yashash mamlakatidan tadbir o‘tkaziladigan mamlakatga va undan so‘ng ortga qaytish uchun bepul aviachipta hamda lager manziliga va undan qaytish uchun transfer taqdim etiladi.
- 4.7. 3.2.3. “Atom tarmog‘ining yosh mutaxassislari” maxsus toifasi: g‘oliblarga yoshlarning Butunjahon yadro kongressida (IYNC-2022) bepul ishtirok etish huquqi taqdim etiladi. Kongress Sochi shahrida (Rossiya) 2022 yilning 22 - 27 may kunlari bo‘lib o‘tadi.
- 4.8. 3.2.3.1. Loyihaning mazkur toifasida ko‘pi bilan 10 (o‘n) nafar g‘olib bo‘lishi mumkin. Kongress o‘tkazish muddatiga Ishtirokchilar 18-35 yoshda bo‘lishlari zarur. Faqat atom sanoati xodimlari ishtirok etadilar.
- 4.9. 3.2.3.2. Ishtirokchilar yotoq, ovqatlanish, tibbiy sug‘urta, yashash mamlakatidan tadbir o‘tkaziladigan mamlakatga va undan so‘ng ortga qaytish uchun bepul aviachipta hamda lager manziliga va undan qaytish uchun transfer taqdim etiladi.
- 4.10. 4.3. Tashkilotchi g‘oliblar uchun vizalarni rasmiylashtirish majburiyatini olmaydi hamda Rossiya elchichoansi/konsulligining viza berishdan bosh tortishi yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. Viza berilmagan

taqdirda Ishtirokchi Loyihada qatnashish bilan bog‘liq tovon talab qilishga haqli emas.

- 4.11. 4.4. Rossiya fuqarosi tomonidan Mukofot natural ko‘rinishda olingan taqdirda, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 226 moddasi 5 bandiga muvofiq Tashkilotchi mukofotlanganni (g‘olibni, Mukofot egasini, soliq to‘lovchini) va ro‘yxatan o‘tgan joyi bo‘yicha soliq idorasini jismoniy shaxslar daromadidan undiriladigan soliqni (JShDS) ushlab qolish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida mazkur majburiyatlar yuzaga kelgan soliq davri yakunidan uzog‘i bilan bir oy mobaynida yozma tarzda xabardor qilishi zarur. Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 228 moddasi 1-bandosti qoidalarini inobatga olib, Mukofotlangan (g‘olib, mukofot egasi, soliq to‘lovchi) mukofot ko‘rinishidagi 4000 rubldan ortiq miqdorda olingan daromadidan jismoniy shaxslar daromadidan undiriladigan soliq (JShDS) mustaqil ravishda hisoblab Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 228-modasida ko‘rsatilgan tartibda to‘lab qo‘yishi shart. Loyihada ishtirok etishga istak bildirib, mazkur Qoidalarga rozi bo‘lgan ishtirokchilar yuqoridagi majburiyatlar yuzasidan xabardor qilingan hisoblanadilar.
- 4.12. 4.5. Biron bir xorijiy davlat qonunchiligidagi mukofot olish sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan soliq va yig‘imlar undirilishi yuzasidan majburiyatlar bo‘yicha Tashkilotchi mas’ul hisoblanmaydi. Soliq va yig‘ilar to‘lash bo‘yicha barcha mas’uliyat Mukofot sohibi zimmasida.

## 5. Yakuniy qoidalar

5.1. Loyihani tashkil qilish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha baxs va nizolar muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan xal etiladi. Muzokaralar yo‘li bilan bartaraf etilmagan baxsli savollar Tashkilotchi manzili bo‘yicha joylashgan sudda Rossiya Federatsiyasining moddiy va prosessual huquqiga muvofiq ravishda xal etiladi.

5.2. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni olish bilan bog‘liq harajatlar, Loyihada ishtirok etishga qaratilgan harakatlar Ishtirokchilar, ularning ota-onalari/qonuniy vakillari tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

5.3. Barcha hujjatlar oddiy qo‘lyozma shaklda tushunarli xusnixatda aks ettirilishi zarur. Skaner va suratli nusxalar to‘liq o‘qilishi kerak, aks holda Tashkilotchi ularni talablar darajasida qilinmagan hisoblashga haqli.

5.4. Ma‘rifatparvar tadbirdlarni Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra rejlashtirilgan muddatlarda o‘tkazishning imkon bo‘lmagan taqdirda (bartaraf qilib bo‘lmaydigan omillar natijasi, tabiiy ofatlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari/federal hukumat qarorlari bilan karantin choralarini joriy qilinishi, hududlarning yopilishi), Tashkilotchi o‘z xohishi bilan tadbirdlarni bekor qilish yoki o‘tkazish muddatlarini o‘zgartirishga haqli. Bu holatda Ishtirokchi Loyihada qatnashish va/yoki mukofotlash tadbirini bekor qilish

(mudatini o‘zgartirish) bilan bog‘liq biron bir tovon talab qilishga haqli bo‘lmaydi.

5.5. Loyihani bajarish, loyiha doirasidagi barcha harakatlarni amalga oshirish uchun Tashkilotchi uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.